

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-4/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent
Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durдона Sidiqovna, f.f.d.
Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD
Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№4/3 (125), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 258 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Abdullayeva D.A. Buxoro me'moriy merosining muhofazasiga mas'ul muassasa tarixi	6
Abdullayeva N.S. Rossiya Sharq muzeyidagi O'zbekiston badiiy metall buyumlari namunalari	9
Abduqodirov J. O'zbekistonda ziyorat: o'tmish va hozir	13
Abulqosimova D.A. 1991-2001 yillarda Samarqand davlat universiteti faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishi	15
Asadov M.O'. Nogironlar milliy rehabilitatsiyasi sohasidagi islohotlar	18
Asatullaev M.I. Public education in the Uzbek SSR for 20 years 1924-1944	24
Axmadova N.A. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan fan va ta'lim sohasidagi hamkorliklarining yangi bosqichga ko'tarilishi	27
Axmedov B.A. Yevropa mamlakatlarida qorako'lchilik sohasining taraqqiy etishi	29
Bakhramova L.I. Tarixiy va madaniy merosni aks ettiruvchi urbanonimlar	32
Bokiyev B.U., Omonov O.O. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining zabardast vakili	35
Burxanova S.T. O'zbekistonning eng yangi tarixiga oid mulohazalar	37
Choriyev B.G'. Mustaqillik yillarida Koson shahrini ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanishi	39
Erkinov A.M. Sovet davrida tarix ta'limining o'qitish metodlari va texnologiyalari	42
Eshmuhammedova L. Markaziy bankning respublika moliya tizimini rivojlantirishidagi ahamiyati	45
G'apparova B.R. Xorazm vohasida xalq o'yinlari va milliy bayramlarining rivojlanish bosqichlari	47
Hamidov A. Ijtimoiy mediaresurslar: kelib chiqish tarixi va rivojlanish tendensiyalari	52
Isoqjanov F.Q. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning boshlang'ich ta'lim sohasidagi ahamiyati	55
Jumaeva N.A. Quyi Zarafshon vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	57
Kenjayev N.J. Kattaqo'rg'on shahri madaniyati tarixi	61
Klichev O.A. Amir Abdulahadning "Safarnoma"lari sharhi	64
Marimov M.E. XX-asrning 20-30-yillarida Xorazm okrugida mahalliy matbuotning rivojlanishi	67
Matyakubova Sh.X. Quyi Amudaryo hududida ilk o'rta asr sug'orilish tarmoqlari tarixiga doir ba'zi mulohazalar	71
Mo'minov U., Ashirmurodov A. Buxoro amirligi ichki savdo munosabatlarida qashqadaryo vohasini tutgan o'rni	74
Nazirov B.S. Trends in the development of equestrian sports in the Surkhandarya oasis	76
Nurullayeva Sh.K. History of fabric manufacturing in Central Asia	79
Ostonov A.Y., Ergashev K.B. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi madaniy-gumanitar hamkorligi: erishilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar	82
Pirimkulova S.SH. Ikkinchi jahon urushi yillarida front orti hududlariga ko'chirib keltirilgan o'smirlarni ish bilan ta'minlash muammolari	86
Poyonov B.R. Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyatining o'rnatilishi	88
Qodirova R.M. TASSRda sovet maktablarini tarix fani o'qituvchilari bilan ta'minlash muammosi va uni yechish yo'llari	92
Qulto'rayev I. XX asrning 50-60 yillarida Qarshi cho'lini o'zlashtirish tadbirlari	96
Qurbanov S.V. "Xorazm" telekanali rivojlanish tendensiyalari: muammo va yechim	100
Rahimova S.A., Lafasov U.P. Boburiylar davridagi zargarlik buyumlarning dunyo xazinasidagi o'rni	104
Rahimova M.Sh., Xidirova Sh.Sh. Mintaqada urbanizatsiya darajasini tizimlashtirish	109
Raxmonov F.Sh. XIX asr oxiri - XX asr ikkinchi yarmida yerga egalikning an'anaviy shakllari	113
Rustamova M.I. Gilamdo'zlik san'ati va Nurobod tumanida gilamdo'stlik san'atining o'ziga xos an'analar	117
Ruziboyev T.Z., Rasulov R.I. Mojrums soy arxeologik yodgorligidagi petrogliflarni gis texnologiyasi asosida monitoring qilish	120
Sayfutdinov F.I. Buxoro amirligi saroylarining me'morchilik tarixi	123

2. Ермакова С., Филатова М.Ю. XIX-XX асрлар бадиий металл буюмлари. Шарқ давлат музейи тўплами. (Москва, Россия). – Toshkent: “SILK ROAD MEDIA”, “EAST STAR MEDIA”, 2020. – 462 б.
3. Мкртычев Т.К. Государственный музей искусства народов Востока и Узбекистан – страницы сотрудничества // Государственный музей искусства народов Востока. Специальный выпуск, 2010. – С. 6-9.
4. Мкртычев Т.К. Государственный музей Востока Москва. – СПб.: Издательство Государственного Эрмитажа, 2011. – 228 с.
5. Курбонова Д.А. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплекташ тамойиллари. Тарих фан. док. DSc. дис.... – Тошкент, 2020. – 230 б.
5. <https://web.archive.org/web/20180702030600/http://www.orientmuseum.ru/about/history/Default.aspx>
6. https://www.orientmuseum.ru/events/2018/cikli_lekciy_2018/5_kovra_do_chashi/25_centralnaya_aziya/index.php

UO'K 908

O'ZBEKISTONDA ZIYORAT: O'TMISH VA HOZIR

J. Abduqodirov, stajyor-o'qituvchisi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati, shu sohada olib borilayotgan islohotlar va mintaqada joylashgan ziyorat turizmi obyektlari tarixi haqida ma'lumot berilgan, shuningdek, ularni tasniflash kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *Amir Temur, Temuriylar, Ziyorat turizmi, O'zbekiston, ziyorat obyektlarini tasniflash, halal turizm, ziyoratgohlar.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о потенциале паломнического туризма Узбекистана, реформах в этой сфере и истории объектов паломнического туризма, расположенных в регионе, а также такие вопросы, как их классификация.*

Ключевые слова. *Амир Тему́р, Тимуриды, Паломнический туризм, Узбекистан, классификация объектов паломничества, халяльный туризм, места паломничества.*

Abstract. *This article provides information about the potential of Uzbekistan's pilgrimage tourism, reforms in this field and the history of pilgrimage tourism objects located in the region, as well as issues such as their classification.*

Key words. *Amir Temur, Temurids, Pilgrimage tourism, Uzbekistan, classification of pilgrimage objects, halal tourism, pilgrimage sites.*

Bugungi kunda har bir sohani isloh qilish bilan birga, uni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiyoti, aholi turmush tarzi va O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'sining oshirishga xizmat qiladi. Ana shunday sohalardan biri ziyorat turizmidir.

Ziyorat barcha musulmon o'lkalari kabi Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ham azaldan sayyohlikning bir turi bo'lib kelgan. Qadim zamonlardan buyon ulug' ajdodlari xotirasiga ehtirom ko'rsatish maqsadida muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish odat tusiga aylangan. Shunday uchun ziyorat biz uchun yangi hodisa emas, balki uzoq vaqtdan buyon sayohat qilishning ajralmas motivi bo'lib kelgan. Odatda, ziyorat iqtisodiy bo'lmagan sayohatning eng qadimgi shakli hisoblangan.

Zamonaviy davrdagi turizm va sanoat va unga bog'liq amaliyotlar ko'p o'rganilgan bo'lsa-da, diniy turizm tadqiqotlarda eng kam o'rganilgan sohalardan biridir. Buni, ayniqsa, turizm sohasining boshqa aspektlari va ular bilan bog'liq bozorlar bilan solishtirganda bilish mumkin. Bu ajablanarli, chunki din asrlar davomida bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishda asosiy rol o'ynagan. Shuningdek, odamlarning bo'sh vaqtdan qanday foydalanishiga ta'sir qilgan [1:67].

Ko'pgina adabiyotlarda sayyohlar va ziyoratchilar ikki xil nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Birinchi va ommabop fikr shundan iboratki, sayyoh va ziyoratchilar bir xil bo'lmasa ham, o'xshashdir, lekin ular tashrif buyuradigan sayyohlik ob'yekti bir-biridan farq qiladi. Ziyoratchi va sayyohlar yoki ziyorat va turizm o'rtasida farq mavjud emas, degan fikrlar ham mavjud [1:24]. Aksincha, ziyorat odatda turizmning bir turi sifatida qabul qilinadi. Chunki u sayohat usullari va transport, xizmat va infratuzilmalardan foydalanish nuqtai nazaridan umumiy xususiyatlarga ega.

Yana bir qarama-qarshi nuqtai nazar shundaki, ziyoratchilar sayyoh emas. Balki ma'naviy yoki diniy e'tiqodga asoslangan ziyoratchilardir.

Ushbu mavzuga oid ma'lumotlar ko'plab xorijiy va mahalliy adabiyotlarda berilgan. Jumladan, mamlakatimiz qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ziyorat turizmini rivojlantirishiga oid farmon va qarorlarida so'z yuritilgan. Shuningdek, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan bu borada izlanishlar olib borilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Abdulaziz Mansur, A.Xudoyarov, R.Komiljon, E.Zayniddinov, N.Abdulahatov, T.G'oziev, M.Maxsudova, S.Usmonova, Sh.Xoshimov, M.Mirzayev, M.Aliyev, xorij tadqiqotchilaridan Bona Kim, J.Dallen Timothy, Daniel H. Olsen, Ömer Akgün Tekin, Zakia, Samori, Tomas, Zahra Moaven va boshqalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) tomonidan chiqarilgan "Strategic roadmap for development of islamic tourism" nomli kitobda ham bu haqda ma'lumot bayon qilingan.

O'zbekiston hududida joylashgan ziyoratgohlarni tasniflash muhim masala hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, tajribali gidlar tomonida sayyoh va ziyoratchilarga beriladigan ma'lumotlarning tarixiyli va ilmiylik saqlab qolinishi lozimdir. Mintaqada joylashgan ziyoratgohlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- *Hudud jihatidan (masalan: viloyatlar kesimida);*
- *Tarixiylik jihatidan (masalan: XVI asrga tegishli yodgorliklar);*
- *Asliyat yuzasidan tasniflash (masalan: madrasalar, maqbaralar, minoralar va hakazo);*
- *Sulolalar davriyligi yuzasidan (masalan: Temuriylar, Ashtarxoniylar);*
- *Din nuqtai nazaridan tasniflash (masalan: Islom dini bilan bogliq qadamjolar, Buddizm tarixiy joylari) va boshqalar.*

Yuqorida keltirilgan tasniflashni viloyat misolida ham keltirish mumkin. Buxoro viloyatini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiqdir:

- *Viloyat hududida joylashgan maqbaralar;*
- *Buxoro viloyati minoralari;*
- *Viloyat hududida joylashgan madrasalar;*
- *Me'moriy obida va majmualar.*

O'tmishda Markaziy Osiyodagi ulug' va mashhur kishilar qabri to'g'risida u yoki bu darajada ma'lumot beruvchi asarlardan tashqari, ularni ziyorat qilishga oid asarlar ham yaratilgan. Abu Hafs Umar Nasafiyning (1070–1142) "Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand" ("Samarqand ulamolari to'g'risida hikoya qiluvchi "Qand" asari"), Muin ul-Fuqaroning (XIV asr oxiri – XV asr o'rtalari) "Tarixi Mullozoda" ("Mullozodaning tarix kitobi"), Sodiq Munshiy Jondoriyning (1758–1820) "Dahmayi shohon" ("Shohlar dahmasi"), Abu Tohirxoja Samarqandiyning (vaf. 1874) "Samariya", Hakim Nuratoiyning "Ismhoi buzurgoni Buxoroi Sharif" ("Buxoroi Sharif ulug'larining ismlari") (1900) va Nosiriddin To'ra Buxoriyning "Tuhfat uz-zoyirin" ("Ziyoratchilarga tuhfa") (1906) kabi asarlar shular jumlasidandir [5:10]. Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih", Imom Termiziyning "Sunan", Abu Mansur Moturidiyning "Tavhid", Abu Mu'in Nasafiyning "Tafsiratul adilla", Abu Hafs Umar Nasafiyning "Aqoid", Abu Lays Samarqandiyning "Bahru-lulum", Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof an aqiqi-t-tanzil", Abu Hafs Kabir Buxoriyning "Fatovo", Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" kabi noyob va qimmatbaho asarlari islom dini rivojida muhim ahamiyatga egadir. Ushbu olimlarning muqaddas ziyoratgohlari O'zbekiston hududida joylashgani mavzuning muhim ekanini ko'rsatadi [3:3].

Madaniy meros va tarixiy obidalar jamiyatda quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- *Ijtimoiy kapitalni shakllantirishga yordam beradi;*
- *Mahalliy urf-odat va madaniyatni saqlashda muhim rol o'ynaydi;*
- *Ijoiy xulq-atvorni targ'ib qiladi;*
- *Jamiyat imidji va g'ururini yuksaltiradi;*
- *Hududlarni obodonlashtirishga yordam beradi [7:762].*

Ziyorat turizmini rivojlantirishda tarixiy va madaniy meros ob'yektlarining roli juda kattadir. Shu ma'noda ziyorat turizmini madaniy va ma'naviy turizm deb ham atash mumkin. Jumladan,

“madaniy turizm” sayyohlarga ushbu mamlakat tarixi, an’analari, xo‘jalik faoliyati, madaniyati, urf-odatları va boshqa jihatlari bilan tanishish imkonini beradi. Insonlarning ana shunday joylarga tashrifi ularning ma’naviyatining yuksalishi va dunyoqarashining kengayishiga xizmat qiladi.

O‘tmishda Markaziy Osiyoda ulug‘ va mashhur kishilar qabrlari to‘g‘risida bir necha asarlar yaratilgan. Ular orasida Muinul Fuqaroning (XIV asr oxiri – XV asr o‘rtalari) “Tarixi Mullozoda” asari alohida o‘ringa ega. Ushbu asarda Buxorodagi muqaddas ziyoratgohlar to‘g‘risida ma’lumot berilibgina qolmasdan, o‘lkamizdagi islomiy ziyorat qoidalari, tartibi va odobi haqida ma’lumot berilgan va ular tizimga solingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dallen J. Timothy., Daniel H. Olsen. Tourism, religion and spiritual journeys. – USA, Canada: Routledge. – P.24,67.
2. Islamov Z. O‘zbekistondagi qo‘lyozma nusxalarining ziyorat turizmini rivojlantirishdagi ahamiyati”// Islom tafakkuri. – T.: 2021. – B.3.
3. Khashimov Sh.J. Pilgrimage tourism in Uzbekistan: problems and solutions// Electronic research journal of social sciences and humanities: V.2. 2020. Iss. 1. – P.8.
4. Muin ul-fuqaro Ahmad ibn Mahmud Buxoriy. Tarixi mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro. Fors tilidan tarjima, muqaddima, tadqiq, izohlar, ilovalar muallifi va nashrga tayyorlovchi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Komiljon Rahimov) – T.: Fan. 2019. – B.10.
5. Mirzayev M., Aliyev M. Turizm asoslari. – T.: Milliy jamiyat nashriyoti, 2011. –B.12.
6. Surayyo Usmanova. Ziyarah tourism as a new linkage for tourism development in Uzbekistan. New voices from Uzbekistan. 2019. – P.31.
7. Ömer Akgün Tekin. Islami turizm: dünya’daki ve türkie’deki genel durum Üzerine bir inceleme// The journal of international social research, 2014. –B.762.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI

№4/3 (125)
2025 y., aprel

O‘zbekcha matn muharriri:
Ruscha matn muharriri:
Inglizcha matn muharriri:
Musahhih:
Texnik muharrir:

Ro‘zmetov Dilshod
Hasanov Shodlik
Xamrayev Nurbek, Lamers Jon
O‘rozboyev Abdulla
Shomurodov Jur‘at

“Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 07.04.2025
Bosishga ruxsat etildi: 14.04.2025.
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 70.
Hajmi 16,2 b.t. Buyurtma: № 4-T

Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi
220900, Xiva, Markaz-1
Tel/faks: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18